

## TEKNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI OSHIRISHDA INKORPORATSIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jo'rayeva Dilnoz Rahmidinovna,

Buxoro davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

<https://orcid.org.0009-0007-4008-2521>

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.024>

*Annotatsiya: Mazkur maqola mohiyati texnologiya darslarini bir nechta fanlar bilan inkorporatsiya qilishga qaratilgan. Texnologiya fanini o'tish jarayonida o'qituvchi ta'lim, tarbiya beradi, o'quvchilarning qaysidir xususiyatini shakllantiradi. Aynan o'sha maqsadlarni amalda bajarish jarayonida bir nechta fanlarga murojaat qilinadi. O'zaro inkorporatsiya qilingan fanlar asosida o'quvchilarda axborot kompetentligi shakllanadi.*

*Kalit so'zlar: dars, texnologiya, inkorporatsiya, axborot, kompetensiya, boshlang'ich sinf, ta'lim, metodika.*

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНКОРПОРАЦИИ В ПОВЫШЕНИИ ИНФОРМАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Жураева Дилноз Рахмидиновна,

Преподаватель кафедры начального образования Бухарского государственного педагогического института

*Аннотация: суть данной статьи заключается в интеграции уроков технологии с несколькими предметами. В процессе прохождения предмета технологии учитель дает образование, воспитание, формирует некий характер учащихся. Именно в процессе практического достижения этих целей обращаются к нескольким дисциплинам. На основе взаимно инкорпорированных предметов у учащихся формируется информационная компетентность.*

*Ключевые слова: урок, технология, инкорпорация, информация, компетенция, начальный класс, образование, методика.*

## THE ROLE OF USING NEGATION IN IMPROVING INFORMATION COMPETENCE IN STUDENTS IN ELEMENTARY SCHOOL TECHNOLOGY CLASSES

Zhurayeva Dilnoz Rahmidinovna,

Bukhara State Pedagogical Institute Teacher of the Department of primary education.

*Abstract: the essence of this article is aimed at denigrating technology lessons with several disciplines. In the process of passing the subject of technology, the teacher provides education, upbringing, forms some characteristic of students. It is in the process of fulfilling those goals in practice that several disciplines are addressed. Information competence is formed in students on the basis of mutually rejected subjects.*

*Keywords: lesson, technology, negation, information, competence, primary class, education, methodology.*

*Kirish. Dunyo miqyosida ta'lim jarayoniga individual va shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish, ularning didaktik asoslarini o'rganib, yangi usul, vositalarni ishlab chiqish metodikasini va metodologik asoslarini takomillashtirish, o'quvchilardagi ijodiy bilish faoliyatining reproduktiv va produktiv darajalarni modellashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqotlar natijasida o'quvchi-yoshlarning erkin, mustaqil fikrlash, atrofdagi voqe'likka ongli munosabatda bo'lish, daxldorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish, dars jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning moddiy-texnika bazasi yaratildi, me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Intelektual salohiyatli o'quvchini*

tarbiyalashda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlab, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatiga joriy qilish uchun zamin yaratish bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism. Bugungi kunda yetarli bilimga ega bo'lgan, olgan bilimini amaliyotda qo'llay oladigan, har bir mavzuga mustaqil o'z fikrini bildira oladigan, yetarli axborot zaxirasiga ega bo'lgan o'quvchilarni tarbiyalash har bir pedagogning vazifasidir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarning afzallik tomoni shundaki, o'quvchini mustaqil fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga, tinglashga va mushohada etishga, intilish va izlanishga, tafakkurni rivojlantirishga, o'z ustida mustaqil ishlashga o'rgatadi. O'qituvchi va o'quvchi birgalikda faoliyat yuritadi. Bugungi kunda o'quvchilar yetarli bilimga ega bo'lish bilan bir qatorda uni amaliyotga qo'llay olishlari ham kerak.

Kompetensiya tushunchasi aynan shuni ifodalaydi. Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari deganda asosan zamonaviy fanda xodimlarni boshqarish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilishda kompetensiya tushunchasiga muhim ahamiyat berilmoqda. “Kompetentlik” – tushunchasi dastlab ta'lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo'lib, zamonaviy atama sifatida qo'llanilib kelinmoqda. “Competentia” lotincha so'zdan olingan bo'lib, o'zbek tilidagi tarjima qilinganda uning lug'aviy ma'nosi “yaxshi biladigan inson”, “tajribaga ega bo'lgan kishi” kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli kompetentlik ta'lim jarayonida sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlar, kutilmagan holatlar rahbarning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishuvchanligi, qo'l ostidagilarni ruhiy holatlarini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi, raqobatdosh tomonlar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarda mavjud muammolar ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda rahbar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni aniq maqsadlar asosida qo'llay olish, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Kompetentlik tushunchasi nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, mos emotsiya va munosabat, xuddi shuningdek, butun bir tizimni boshqarish mexanizmi mavjud ekanligi talab etiladigan murakkab amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq. U o'z ichiga nafaqat kognitiv tashkil etuvchini, balki qadriyatli yo'nalganlikning motivatsion, etik, ijtimoiy va axloqiy tizimlarini ham oladi. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilar ko'p axborotlarni bilib oladilar va ko'p ma'lumotlarga ehtiyoj sezadilar. Buning oldini olish uchun o'quvchilarga yetarli axborotlar zaxirasi yetkazib berish kerak. Shu orqali o'quvchilarda axborot kompetentligi yaxshi rivojlanib boradi. Milliy dasturda tayanch va fanga oid umumiy kompetensiyalarga axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi kiritilgan bo'lib uning mazmuni quyidagicha: fanlarni o'qitishda axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborottelekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar)lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilarda axborot kompetentligini oshirishda bizga yangi tushunchalardan bo'lgan “inkorporatsiya” yordam beradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda umumta'lim fanlarining tarqoq holda o'rgatilishi, ularni bir-biriga uzviy bog'liqlikda o'rgatilmasligi o'quvchilar bilimini to'la bo'lishi va butun borliqni bir butun holda anglashlariga to'sqinlik qilib, o'quvchilarda qiyinlik uyg'otadi. Olimlarimizning fikricha inkorporatsiya didaktik prinsiplar qatoriga kiradi va ular orasida yetakchi o'rin egallaydi. Bunday tushuncha ta'lim tizimida inkorporatsiya masalasini, fanlararo uzviylik va bog'liqlik masalasini yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Ta'lim sistemasiga inkorporatsiyani kiritish maktab va jamoatchilik o'rtasida turgan ta'lim va tarbiyaga oid vazifalarni hal etishda asosiy vosita bo'lishi mumkin. Inkorporatsiya - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'liqligidir. Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori

ko'rinishda namoyon etadi. Shuni alohida qayt etish kerakki, inkorporatsiya jarayoni asoslari uzoq o'tmishdagi xalq pedagogikasi va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Inkorporatsiya fanlararo bog'liqlikdir. Fanlararo bog'liqlik asoslari tabiatni to'la holda o'quv darsliklarda ko'rsatish va tushuntirish zaruratidan paydo bo'lgan. Fanlararo bog'liqlik nazariyasini ishlab chiqishda K.D.Ushenskiy juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu metodika rivojida X.V.Stoyunin, N.F.Bunakov, V.I.Vodovozov va boshqa pedagoglar samarali ish olib bordilar. Fanlararo aloqa va integratsiyaning maktablarda o'qitish va tarbiyalashdagi ahamiyati juda ko'p pedagog olimlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish, matematika, texnologiya darslari inkorporatsiya qilinsa ham yaxshi natijaga erishiladi. Bunda ham o'quvchi darsni yaxshi tushunadi. Ayniqsa, texnologiya darslarida darsni inkorporatsiyasiz tashkil qilib bo'lmaydi. Chunki texnologiya darslarida boshlang'ich sinfda o'quvchilar ko'proq buyumlar yasaydilar, quradilar, loyihalar yaratadilar.

Fanlarni inkorporatsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
2. Fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.
3. Sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Boshlang'ich sinflarda texnologiya darslarining inkorporatsiya qilishning ahamiyati shundan iboratki, o'quvchiga bir dars orqali bir necha darsga doir ma'lumotlar beriladi. O'quvchida axborot zaxirasi oshadi, bilimi rivojlanadi, fikrlash jaroyoni tezlashadi. Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarini tahlil qilib chiqadigan bo'lsak inkorporatsiya qilishning naqadar kerakligini tushunamiz. 1-4-sinf texnologiya darsliklarida turli-tuman rang-barang kompozitsiyalar, buyumlar, o'yinchoqlar berilgan bo'lib, unda tabiat darslari bilan ham, matematika, rasm darslari bilan ham, boshqa barcha fanlar bilan bog'lanadigan masalalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan, texnologiya darsligida baliqlar, qushlar, parrandalar va boshqa hayvonlarning shakllarini yasash juda ham ko'p uchraydi. Bu kompozitsiyalarni, o'yinchoqlarni yasashda o'qituvchi qush, baliq, hayvonlar haqida ma'lumot berib darsni tabiat fani bilan bog'lasa, shu hayvon yoki qush, baliqning rasmini chizishni o'quvchilarga vazifa berib darsni tasviriy san'at darsi bilan bog'lab o'quvchilarda bu jonivorlar haqida tasavvur hosil qiladi. Bundan tashqari, duradgorlik, tikuvchilik ishlari bilan bog'liq masalalar ham yetarlicha topiladi. Bu masalalarni tushuntirishda o'qituvchi matematika fanlari bilan inkorporatsiya qilibgina qolmasdan, o'quvchilarda kasbga muhabbatni ham shakllantirib boradi. Inkorporatsiya tushunchasi integratsiya kabi fanlarni bir-biriga bog'lash bilan bir qatorda, sohalarni ham bir-biriga bog'lashni anglatadi.

Muhokamalar va natijalar. Boshlang'ich sinf texnologiya darsliklarida bunday dars mashg'ulotlarni istagancha topish mumkin. Shuning uchun ham, asosan, texnologiya darslarida fanlarni inkorporatsiya qilish alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda zamonaviy pedagog har tomonlama bilimli, salohiyatli, o'z kasbining ustasi va, albatta, yartuvchan bo'lishi kerak. Aynan fanlarni inkorporatsiya qilish o'qituvchining yaratuvchanligi va bilim salohiyatiga bog'liqdir. Shu bois texnologiya darslarida har bir buyumni, o'yinchoqni, kompozitsiyani yasashda boshqa fanlar bilan bog'lash orqali o'quvchilarga yanada ko'p ma'lumot beriladi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf darsliklari yangi milliy dastur asosida yaratilgan. Boshlang'ich sinf texnologiya darslikdagi mavzulardan misollar keltiramiz. 3-sinf darsligidagi 20-darsda "Guldasta" mavzusida rangli qog'ozlardan guldasta yasash mavzusi berilgan. Bu mavzu orqali o'quvchilarni florist kasbiga qiziqish uyg'otish hamda shu kasbga yo'naltirish mumkin. Dars jarayonida tabiiy fanlar, matematika, rabotatexnika, geometriya, tarix, texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik fanlari bilan aloqadorlik hamda integratsiya qilib o'tiladi. 4-sinf darsligidagi 3-darsda "Parrandachilik fermasi" mavzusida o'quvchilar bilan qushlar uchun donxo'rak yasaladi. Bu mavzu orqali o'quvchilarni zootexnik, veterinar kasbga qiziqish uyg'otish hamda shu kasbga yo'naltirish mumkin. Dars jarayonida tabiiy fanlar, matematika, rabotatexnika, geometriya, tarix, texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik fanlari bilan aloqadorlik hamda integratsiya qilib o'tiladi. Quyidagi mavzuni boshqa fanlar bilan bog'lashda eng avval tabiat fani bilan bog'lanadi. Parrandalar haqida ma'lumot beriladi

va shakllari eslash orqali o'quvchilar geometriya fanini eslaydilar. So'ngra yasashdan oldin uning rasmi chiziladi va tasviriy san'at darsi bilan bog'lanadi, qog'ozni buklab shakllarni hosil qilish orqali texnologiya darsi bilan bo'g'lanadi. Bu orqali o'quvchilarda yangidan-yangi axborotlar shakllanadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollar asosida ko'rib o'tdik. Demak, har bir fanda o'rganiladigan kichik bir element o'quvchilardagi axborot xazinasini oshirishda katta ahamiyatga ega ekan. XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Shu tufayli olamda tuganmas axborotlar manbai mavjuddir. Bu zaxira kundan-kunga oshib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarni tarbiyalashda XXI asrga mos avlodlarni shakllantirish pedagoglar oldidagi ulkan vazifadir.

#### Adabiyotlar

1. Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi (texnologiya)
2. R.Ismoilova "Texnologiya" 1-sinf – Toshkent: Respublika markazi, 2023.
3. R.Ismoilova "Texnologiya" 2 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023
4. R.Ismoilova "Texnologiya" 3 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
5. R.Ismoilova "Texnologiya" 4 sinf – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2023.
6. Z.D.Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev "Texnologiya fanini o'qitish metodikasi" Buxoro-2020
7. Karimov I va boshq. Mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlar. T.:RTM, 2008.-37 b
8. Karimov I. Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari. -T.:2012
9. Raxmidinova, D. J. R. (2023). Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida fanlararo inkorporatsion bog'liqlikni ta'minlashning nazariy asoslari. Conference, 12(12), 395-399.
13. Шоева, Ю. (2022). Общие принципы работы над задачами математики в младших классах. Science and Education, 3(9), 428-433.